

ISSN 2010-9075

БЕРДАҚ атындағы ҚАРАҚАЛПАҚ
МӘМЛЕКЕТЛІК УНИВЕРСИТЕТИНИҢ

ХАБАРШЫСЫ

БЕРДАҚ номидаги ҚОРАҚАЛПОҚ
ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИНИНГ

АХБОРОТНОМАСИ

ВЕСТНИК

КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА им. БЕРДАХА



3

НӨКІС 2022 НУКУС

**БЕРДАҚ атындағы ҚАРАҚАЛПАҚ МӘМЛЕКЕТЛИК
УНИВЕРСИТЕТИНИҢ**

ХАБАРШЫСЫ

**БЕРДАҚ номидаги ҚОРАҚАЛПОҚ
ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИНИНГ**

АХБОРОТНОМАСИ

ВЕСТНИК

**КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА им. БЕРДАХА**

№ 3 (57)

2022

Каракалпакский госуниверситет им. Бердаха

Учредитель и издатель: Каракалпакский государственный университет им. Бердаха

Главный редактор: доктор технических наук РЕЙМОВ А. М.

Заместитель главного редактора: доктор географических наук ТУРДЫМАМБЕТОВ И.Р.

Ответственный редактор журнала: ТУРСЫНМУРАТОВ М.

Редакционная коллегия:

АБДИНАЗИМОВ Ш. – проф., доктор филологических наук, АБДУЛЛАЕВА М.Н. – доктор философских наук, АЛЕУОВ У. – проф., доктор педагогических наук, АЛЛАМБЕРГЕНОВ К. – проф., доктор филологических наук, АМЕТОВ Я. – доц., доктор биологических наук, АСЕНОВ Г. – проф., доктор биологических наук, БАЙМАНОВ К. – проф., доктор технических наук, БАЛЛИЕВА Р. – доктор исторических наук, БАБАДЖАНОВ Ф. – доц., кандидат филологических наук, БЕРДИМУРАТОВА А. – проф., доктор философских наук, ЕРКИБАЕВА Г.Г. – доктор педагогических наук, ЖАРИМБЕТОВ К. – проф., доктор филологических наук, ЖОЛЛЫБЕКОВ Б. – проф., доктор географических наук, ЖУМАНОВ М.А. – проф., доктор биологических наук, ИСМАЙЛОВ К.А. – проф., доктор физико-математических наук, КОЩАНОВ Б. – проф., доктор исторических наук, КУДАЙБЕРГЕНОВ К.К. – проф., доктор физико-математических наук, КУДАЙБЕРГЕНОВ М.С. – проф., доктор филологических наук, КУТЫБАЕВА Е. – проф., доктор юридических наук, КАЙЫПБЕРГЕНОВ Б.Т. – доктор технических наук, МАМБЕТУЛЛАЕВА С.М. – проф., доктор биологических наук, МАМБЕТНАЗАРОВ Б.С. – проф., доктор сельскохозяйственных наук, МАТКУРБАНОВ Р. – доктор юридических наук, МАТЧАНОВ А.Т. – проф., доктор биологических наук, МАШАРИПОВА Т. Ж., – доц. доктор филологических наук, МУМИНОВ Ф.А. – проф., доктор филологических наук, МУСАГАЛИЕВ А. Ж. – доктор экономических наук, РЕЙМОВА З.А. – проф., доктор юридических наук, РУЗИЕВ Э. – проф., доктор педагогических наук, СЕЙФУЛЛАЕВ Ж. – доктор физико-математических наук, ТАГАЕВ М.Б. – проф., доктор технических наук, ТИЛЕУМУРАТОВ Г. – доц., кандидат филологических наук, УБАЙДУЛЛАЕВ Х. – проф., доктор экономических наук, УТЕБАЕВ Д., – доц. доктор физико-математических наук, УТЕУЛИЕВ Н.У. – проф., доктор физико-математических наук, УРАЗЫМБЕТОВ К.К. – проф., доктор филологических наук, УМАРОВА К. – доктор юридических наук, ХВАН Л.Б. – проф., кандидат педагогических наук, ХИКМАТОВ Ф. – проф., доктор географических наук.

Журнал издается с 2008 года

Выходит 4 раза в год на каракалпакском, узбекском, русском и английском языках

Адрес редакции: 230100, г. Нукус, ул. Ч. Абдирова, 1.

Телефон: 223-60-19

E-mail: vestnik@karsu.uz

Редактор: Машарипова Т. Ж.

Корректор: Кайыпова Ф.Ж.

Компьютерная верстка: Сейдабуллаева Ф.

«Вестник Каракалпакского государственного университета им. Бердаха» Постановлениями Президиума ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан (20.03.2015 г., №214/2; 18. 11.2015 г., №218/5; 22.12.2015 г., №219/5; 23.12.2016 г., №232/5; 29.12.2016 г., №233/4; 29.03.2017 г., №239/5; 29.08.2017 г., №241/8; 28.12.2017 г., №247/6) включен в перечень научных изданий, рекомендованных Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан, для публикации основных научных результатов докторских диссертаций по научным направлениям История, Философия, Филология, Юридика, Педагогика, Психология, Экономика, Политология, Исламоведение.

Сдано в набор 10. 09. 2022. Подписано к печати 24. 09. 2022. Формат бумаги 60х84 1/8. Печать офсетная. Бум. л. 30,1. Уч.-изд. л. 20. Тираж 300. Цена договорная.

Каракалпакский государственный университет им. Бердаха. г.Нукус, ул. Ч. Абдирова,1 Журнал зарегистрирован Каракалпакским агентством печати и информации. Регистрационный номер №01-051 от 31 октября 2008 г.

Отпечатано в ООО «Шабнам Омад Нур». г. Самарканд, ул. Зиёкорлар 1.

© Вестник Каракалпакского государственного университета им.Бердаха

Founder and publisher: Karakalpak State University named after Berdakh

Editor in Chief: Doctor of Technical Sciences REYMOV A. M.

Deputy Editor-in-Chief: Doctor of Geographical Sciences TURDYMAMBETOV I.R.

Responsible editor of the periodical: TURSUNMURATOV M.

Editorial team:

ABDINAZIMOV Sh. – prof., Doctor of Philology, ABDULLAEVA M.N. – Doctor of Philosophy, ALEUOV U. – prof., Doctor of Pedagogical Sciences, ALLAMBERGENOV K. – Prof., Doctor of Philology, AMETOV I. - Associate Professor, Doctor of Biological Sciences, ASENOV G. – Prof., Doctor of Biological Sciences, BAYMANOV K. - Prof., Doctor of Technical Sciences, BALLIEVA R. – Doctor of Historical Sciences, BABAJANOV F. – docent, PhD of Philological Sciences, BERDIMURATOV A. – Prof., Doctor of Philosophy, ERKIBAEVA G. G. – Doctor of Pedagogical Sciences, ZHARIMBETOV K. – Prof., Doctor of Philology, ZHOLLYBEKOV B. – Prof., Doctor of Geography, ZHUMANOV M.A. – Prof., Doctor of Biological Sciences, ISMAYLOV K.A. – prof., Doctor of physical and mathematical Sciences, KOSCHANOV B. – prof., Doctor of historical Sciences, KUDAYBERGENOV K. K. – prof., Doctor of Physical and Mathematical Sciences, KUDAYBERGENOV M.S. – prof. Doctor of Philology, KUTYBAEVA E. – Prof., Doctor of Law, KAYPBERGENOV B.T. – Doctor of Technical Sciences, MAMBETULAEVA S.M. – Prof., Doctor of Biological Sciences, MAMBETNAZAROV B.S. – prof., Doctor of Agricultural Sciences, MATKURBANOV R. – Doctor of Law, MATCHANOV A.T. – prof., Doctor of Biological Sciences, MASHARIPOVA T. Zh. - docent. Doctor of Philology, MUMINOV F.A. – prof., Doctor of Philological Sciences, Musagaliyev A. Zh. - Doctor of Economics, REIMOVA.Z.A. - prof., Doctor of Law, SEIFULLAEV J. - Doctor of Physical and Mathematical Sciences, RUZIEV E. – prof., Doctor of pedagogical Sciences, TAGAYEV M.B. – prof., Doctor of Technical Sciences, TILEUMURATOV G. - docent, Candidate of Philological Sciences, UBAYDULLAYEV H. – prof., Doctor of economics, UTEBAEV D. - docent. Doctor of Physical and Mathematical Sciences, UTEULIEV N.U. – prof., Doctor of Physical and Mathematical Sciences, URAZYMBETOV K.K. – prof., Doctor of Philology, UMAROVA K. – Doctor of Law, KhVAN L.B. – prof., PhD of Pedagogical Sciences, KHIKMATOV F. – prof., Doctor of Geographical Sciences.

Periodical has been published since 2008

Issued 4 times a year in Karakalpak, Uzbek, Russian and English

Editorial address: 230100, Nukus, st. Ch. Abdirov, 1.

Phone: 223-60-19

E-mail: vestnik@karsu.uz

Editor: Masharipova T. Zh.

Proofreader: Kayipova F. Zh.

Computer layout: F. Seydabullaeva

"The Herald of Karakalpak State University named after Berdakh" is included in a list of scientific publications recommended by the Higher Attestation Commission under the Cabinet of the Minister of the Republic of Uzbekistan for the publication of the main scientific results of doctoral dissertations in scientific areas History, Philosophy, Philology, Law, Pedagogy, Psychology, Economy, Political Science, Islamic Studies, by decrees of the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan (20.03.2015 г., №214/2; 18. 11.2015 г., №218/5; 22.12.2015 г., №219/5; 23.12.2016 г., №232/5; 29.12.2016 г., №233/4; 29.03.2017 г., №239/5; 29.08.2017 г., №241/8; 28.12.2017 г., №247/6).

Delivered to the set 10. 06. 2022. Signed for printing 24.06. 2022. Paper size 60x84 1/8. Offset printing. Paper sheet 30,1. Edu.pub. sheet 20. Circulation 300. Price is negotiable.

Karakalpak State University. Berdakh Nukus, st. Ch. Abdirova, 1

The periodical is registered by the Karakalpak Press and Information Agency.

Registration number №01-051 from October 31, 2008

Printed by «Shabnam Omad Nur» Ltd. Samarkand, Intellectuals 1.

СОДЕРЖАНИЕ

ЕСТЕСТВЕННЫЕ И ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

МАТЕМАТИКА. ФИЗИКА.
ТЕХНИКА.

Отарова Ж.А., Реймова Л.Ж. Обратные задачи для уравнений второго порядка в прямоугольной области	4
Бекиев А.Б., Аяпбергенова А.Д. Нелокальная задача для уравнения четвертого порядка в прямоугольной области	9
Seytaxov R.P., Saliev I.B. Cenzurlanıwǵıń ápiwayı regressiya modelinde shártli bólistiriw funkciyasın kopula járdeminde bahalaw	16
Kuchkorov T.A., Allamuratova Z.J., Hamzayev J.F. Avtotransportlar oqimini intellektual tahlil qilishda chorralarturlarining tirbandlikka ta'siri.	22

ХИМИЯ.БИОЛОГИЯ.
ГЕОГРАФИЯ.

Алламуратова Т.К. Исследование качественных характеристик новых структур двухслойного трикотажа	26
Палуанов Ы. Д. К вопросу об организации профилактики лепры в эндемичной зоне каракалпакии	30

ЭКОНОМИКА. ФИНАНС.

Намазов Г. Ш. Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда хориж тажрибалари ва унда Сурхондарё вилояти шароитида фойдаланиш имкониятлари	34
Бекбосынов К.К. Особенности цифрового банкинга в современном мире	38
Shermuxeamedov B.U. Investment of resources through effective organization of deposit policy in the process of transformation of commercial banks	44

ОБРАЗОВАНИЕ. МЕТОДОЛОГИЯ.
ПСИХОЛОГИЯ

Г.Шамуратова, К.У. Розумбетов, А.Т. Есимбетов, Г.К., Собиров С.Б. Физическое развитие девочек школьного возраста республики Каракалпакстан	48
Madatov R.M. Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimiga klaster yondashuvni tatbiq etishning analitik tahlili	55
Рамазонова М. Ғ. Педагогика нима? арпеддагогика нима? ўсмирларни педагогик санъат орқали тарбиялаш	58
Носирова Д. С. Инновацион ёндошув асосида талабаларнинг маънавиятини ривожлантириш	63
Турдымуратов Ж.А. Дене тәрбиясы мәдениятының қәлиплесиўиндеги тарийхый хәм философиялық тийкаргы шараятлар	67
Makovskaya L. Implementing a process-oriented approach to writing in higher education institutions	71
Турдымуратов Ж.А., Утегенов Ж.Ж. Студент-жаслар ушын дене тәрбиясы бойынша өз бетинше сабақлар мәселеси	74
Утегенов Ж.Ж. Студент-жаслардың дене тәрбиясына қызығыўшылығын қәлиплестириўдиң актуал мәселелери	79
Машаринова Ш. Р. Приёмы развития функциональной грамотности школьников при работе с текстом	84
Orazimbetov Sh. A. Inglis tilin oqitwda "motivaciya" tushinigi	87
Dauletova G.M. O'smirlik yoshdagi psixologik o'zgarishlar	94
Джолдасов Р.Ф., Турдимуратов Ж.А., Татлимуратов А.Т. Ёшлар тарбиясида жисмоний ва валеологик таълимнинг ўрни ва аҳамияти	99
Bijanov A.K. Dual talim sharayatinda simulyatorlar jardeminde elektr tamiyinlew tiykarlari panin oqitiw metodikasi	103
Абдусаматов Х. Мигрантлар мослашувининг психологик муаммолари	108
Альджанова Г. А. Мотивационная готовность студентов к учебному процессу с помощью метода проектов	113
Пирниязова Н.В. Современные тенденции развития высшего образования в узбекистане в контексте инновационного и интеграционного подхода	117
Liliya Makovskaya. Implementing a process-oriented approach to writing in higher education institutions	121
Allayarova S.U. O'quvchilar nutqiy malakasini shakllantirishda xalq og' zaki ijodi va ertaklardan unumli foydalanish	124

**ИСТОРИЯ. СОЦИОЛОГИЯ.
ФИЛОСОФИЯ. ЮРИСПРУДЕНЦИЯ.**

Сейтмуратов О. Каракалпақлардағы шаруашылық хожалығы мәселесининң үйренилиў тарийхынан	127
Бабаева З. Д. Хоразм халқ совет Республикаси даврида чорвачилик аҳволи ва ижтимоий-иқтисодий ҳаётдаги ўзгаришлар	134
Сайманов С.С. Деятельность архивных органов каракалпакстана в годы войны	138
Хажиева М. С. Ёшлар тарбиясида халқимиз миллий педагогикасининг ўрни ва роли	140
Арзиев Р. Замонавий медиамарказлар: институционал кўринишлари ва ижтимоий функциялари	147
Алимбетова Г. А. Сиёсий ғоя ва мафкуранинг сиёсий жараёнларга таъсири	151
Шерниязов Р.Х. XVI – XVIII асрларда Қуйи Амударё ҳавзасида юз берган этник жараёнларнинг айрим жиҳатларига доир	154
Султаниязов М.Б. Тəлимнинг глобалласыў процессинде жасларды тəрбиялаў мəселеси	155
Муратбаева А.Б. «Мекан» газетасында миллетлер аралық татыўлық мәселесининң сәўлелениўи	159
Зинатдинов Н.К. Женский вопрос в контексте борьбы с религией в каракалпакстане	164
Чориев М. А. Шахсий ҳуқуқ ва эркинликларни ҳимоя қилиш тажрибасининг тарихий шаклланиши	168

ФИЛОЛОГИЯ. ЖУРНАЛИСТИКА.

Тлеуниязова Г. Б. Шығарма атамасында автор интенциясы ҳәм көркем тексттиң өзара қатнасы	174
Сапаров С. П. Лексико-семантический анализ фразеологических единиц английского и каракалпакского языков	179
Кдырбаева Г. К. инглиз қаҳрамонлик достони «Беовульф» ва мифологик образларнинг лингвомаданий талқини	183
Ahmedova K.K. Onlayn muloqotning o'ziga xos grammatik xususiyatlari.	187
Сейтимбетова А.П. Семантико-стилистический анализ ФЕ эпоса "Кырк кыз" и способы их передачи на русский язык	190
Ибрагимов Ж. Жаҳон тилшунослигида валентлик назарияси тадқиқи	194
Толеубаева А. О. газета тилинде мәни алмасыў процесси: лингвомәдений аспект	198
Жепбарова С. К. «Ашық нәжеп» дәстанының версиялары ҳәм көркем аўдармалары	203

Ushbu maqolada O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida yozishni o'rgatish va baholashga yondashuv joriy etilgan eksperimental tadqiqot natijalari muhokama qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, jarayonga yo'naltirilgan yondashuv talabalarning yozish sifatini oshirishda foydali bo'lishi mumkin. Shu sababli, ushbu yondashuvni mamlakatimizning boshqa ta'lim muassasalarida qo'llash uchun tavsiya qilish mumkin.

Tayanch so'zlar: yozish, loyihalash, jarayon, o'zaro tekshirish, o'z-o'zini baholash, fikr-mulohazalar, tahrirlash

O'QUVCHILAR NUTQIY MALAKASINISINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI VA ERTAKLARDAN UNUMLI FOYDALANISH

Allayarova.S.U

Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

O'zbek xalqi ming yillar davomida yaratgan milliy xazinamizning nodir merosi bo'lgan og'zaki badiiy ijodi hamisha inson kamoloti, yurt farovonligi, jamiyat yetukligi borasida ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Yillar to'zonidan omon-eson o'tib, avlod-ajdodlardan meros qolgan folklor janrlari ijtimoiy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy sohalarida maktab, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda yo'l boshlovchi vazifasini o'taydi.

Xalqning turmush tajribalari, kundalik kuzatishlari natijasida yuzaga kelib, o'z isbotini topgan maqollar, naqlarni hayot maktabi darsligi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xalqimiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'zbekona urf-odatlar, rasm-rusmlar, asrlar davomida yaratilgan dostonlar, ertaklar, qo'shiqlar haqida alohida g'urur bilan gapirila boshlandi. Har bir inson biron sohaning mutaxassisi bo'lishdan tashqari o'z xalqining farzandi bo'lmog'i lozim.

Bola o'sib ulg'ayay ekan umri davomida xalq og'zaki ijodidan bahramand bo'lib ulg'ayadi. Bolaligida ertak eshitib katta bo'lmagan odam bu dunyoda yo'q desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki har bir odam dunyoga kelgach, turli darajadagi ertak, rivoyat, afsonalarni eshitadi va aynan o'shalar orqali dunyoni o'rganadi. Ularda xalq badiiy tafakkurining eng sara mevasi yashiringan. Buni anglash va ularni qayta kashf etish kishiga hayotni tushunish, odam va olam munosabatlarini o'rganishga yordam beradi [1, 1-3]. Xalq og'zaki ijodini o'rganish – xalq tarixi, urf-odati, an'analari, o'y-kechinmalari, buguni va kelajagini tadqiq etish demakdir. Unda millatning o'zini anglashi, o'zligini namoyon qilish xislatlari, intilishlari, hayot tarzi, dunyoqarashi aks etgan folklor asarlarda o'z aksini topgan dunyoqarash, qadriyatlar yosh avlodni har tomonlama bilimli, ma'naviy jihatdan yetuk etib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Zero, xalq og'zaki ijodi ma'naviy taraqqiyotning asosiy tarixiy ildizlaridandir. Har bir xalqning og'zaki ijodi o'sha xalqning fe'l-atvori, estetik didi, ruhiyati, urf-odat va an'analari, orzu-intilishlari, geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgudir. Biz ana shu ko'zgu vositasida olamshumul ezgu niyatlar, insoniy fazilatlar, yovuzlik, zulm, adolatsizlikka qarshi nafrat tuyg'ularini ko'ramiz. Shunday ekan, xalqimizning qalb qo'ri, yuksak aql-zakovati bilan asrlar davomida yaratilib, avloddan-avlodga o'tkazib kelingan folklor namunalari ham o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Ma'naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o'rini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Ma'naviy qashshoq kimsa hayotda ro'y berayotgan voqealarga loqayd bo'ladi. Loqaydlik esa tuzatib bo'lmay oqibatlariga olib keladi. Ma'naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Shuning uchun keksa avlod, avvalo, farzandning ma'naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Aslini olganda, xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiqlari, maqollari va boshqa o'nlab janrdagi asarlar yosh avlodning ma'naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta'minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan. O'tgan asrgacha bugungi kundagi matbuot, o'quv dargohlari, madaniyat markazlari, radio, televidenie, internet kabi ta'lim, ma'rifat tizimi bo'lmagan. Bu vazifalarni bajarish, asosan, xalq og'zaki ijodi zimmasiga yuklatilgan. Natijada, xalq og'zaki ijodi xalq pedagogikasi zami-nini tashkil etgan.

Ma'lum bo'ladiki, madaniyat, san'at, til xalqning xalq sifatida ravnaq topishining bosh omili ekan. Xalq ijodi esa madaniyat, san'at, tilning asosini tashkil etuvchi tarkibiy qismidir. Qadimdan ota-bobolarimiz o'z orzu-umidlarini turmush haqiqatlari bilan uyg'unlashtirgan holda go'zal mo'jizakor manzaraga, sodda va o'ta teran mazmunga ega ertaklarni yaratganlar. Hayot haqiqati va kishilarning ruhi, psixologiyasini o'zida aks ettirgan ertaklarning badiiy kuchi hanuzgacha kattalar va kichiklar uchun ham birday qiziqarli, jozibali xalq kitobi sifatida ta'sir etib kelmoqda.

Ertaklar – yaxshilikka yetaklar, deb xalqimiz bejizga aytishmagan. Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati katta. Ertaklarda voqealar asosan mo'jizali tarzda ifodalanadi. Binobarin, mo'jiza yoki fantaziya voqea va hodisalarni hayot bilan bog'lab, haqiqat, ozodlik, to'g'rilik, odamiylik kabi didaktik g'oyalarni tashviq etadi, syujet rivojiga kuch bag'ishlaydi, tinglovchi e'tiborini o'ziga jalb qilib, ajoyibotlar olamiga olib kiradi, shirin tuyg'ular dunyosiga g'arq etadi. Umumlashtirilgan holda ertakka xos quyidagicha ta'rif e'tirof etilgan: "Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, fantastik hamda hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar ertak deb ataladi".

Ertaklarda an'anaviy boshlama voqeaning qay vaqt bo'lib o'tganini bildirmaydi, noaniq, umumiy tarzda ifodalaydi. Ertak aytuvchi kichik va o'rta yoshdagi bolalarga mo'ljallangan har qanday ertaklarni tinglovchi diqqatini tezda o'ziga jalb qilishi uchun "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, och ekan, to'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, tovuq qoq etdi, bilmadim qaqqa ketdi" – tarzida an'anaviy boshlama qolipdan foydalanishi maqsadga muvofiqdir [2,47].

Ertaklar, avvalo, bolalarning jonivor hayvonlarga, parrandalarga bo'lgan qiziqishi, mehrini oshirsa, ikkinchidan, mehnat orqali farovon, tinch, osoyishta turmush kechirish mumkinligi uqtiriladi. Ertaklarning yakuni qissadan hissa chiqarishga undaydi. Ya'ni, "Yaxshilik qilsang – yaxshilik topasan, yomonlik qilsang – jazo olasan", "Mehnat qilsang-rohat ko'rasan", "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik" kabi maqollarning ma'nosi

izohlansa, bolalar har bir o'qigan ertak-larining xulosasini maqollar bilan izohlashga harakat qiladilar. Bu bolalarning tafakkurini charxlash bilan birga, ko'proq maqollar yod olishiga ham yordam beradi. Ertak qahramoni aql bilan ish tutib, qiyin jumboqlarni yechadi, tadbir bilan ish tutib, dahshatli kuchlarni yengadi.

Ma'lum bo'ladiki, qahramon ismi berilsa ham, berilmasa ham asosiy maqsad ertakdagi hikoya qilinayotgan voqea oddiy maishiy turmush sharoitida kechganini ta'kidlashdan iborat bo'ladi. Keyingi maqsad asar ishtirokchilari boshidan kechirgan turmush lavhalari vositasida yosh avlodning barkamol inson bo'lib etishuvi uchun tarbiyaviy zamin hozirlashdan iboratdir. "Uch og'a-ini botirlar" ertagida mo'ysafid ota o'z o'g'illarini qo'rqmas, jasur qilib o'stiradi. O'z farzandlarini baxt topish safariga otlantirar ekan, ularga uchta maslahat beradi: "To'g'ri bo'ling, bexavotir bo'lasiz. Maqtanchiq bo'lmang, uyatga qolmaysiz. Dangasa bo'lmang, baxtsiz bo'lmaysiz".[3, 153] Bu pand mohiyatini tahlil qilsak, hayotga tayyorlanishi lozim insonning haqiqiy amal qilishi kerak hisoblangan fazilatlar aks etganiga ishonch hosil qilamiz. Bu ertaklarda tarbiyaviylik, ma'naviy yetuklik, komillik, odamiylik, fikran teranlik ustivor darajada tavsiflanadi. Ertakning pedagogik qiymati shundaki, o'quvchilar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, vovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar.

Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan adabiy o'qish darslari o'zbek tili fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o'qish va nutq o'stirish bo'limida o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuniga; o'quvchilarni to'g'ri, ravon, ma'lum darajadagi tezlik bilan ifodali o'qishga o'rgatish; o'quvchining ona - Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g'oyalari ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi.

Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida "kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?)", "Nima uchun", "... nima uchun jazolandi? (yoki rag'batlantirildi?)", "Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba'zilaridan yuz o'giradi?)" kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib xulosaga keladilar.

Boshlang'ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko'proq o'qitiladi. "Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak" (A.Obidjon), "Ko'zacha bilan tulki" kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida o'qitiladi va tahlil qilinadi. Ertak matni ustida ishlashda tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning o'zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, "Davlat", "Ilm afzal", "Hiylagarning jazosi", "Hunarsiz kishi o'limga yaqin" kabi maishiy ertaklarni ham o'qiydilar. Bunday ertaklarda xalq o'z hayotini hikoya qiladi, shu sababli o'quvchilar ertakni o'qigach, o'tmishdagi xalq hayotini, o'y-fikrlari va orzu-istaklarini bilib oladilar.

Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning xulq-atvori, ayrim hatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga bo'lib o'qiydilar. Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi.

O'quvchilarni 4-sinfdan erkin foydalanishga o'rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni o'qituvchi aytib berishi mumkin. O'quvchi ertak mazmunini o'zlashtirib olgandan so'ng, uning tili ustida ishlashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda o'quvchilarning o'z nutqida til vositalaridan o'rinli foydalanish talab qilinadi. Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yo'li bilan bog'lanishli nutqni o'stirish, nutqning ta'sirchanligini oshirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, Xalq og'zaki ijodi – insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at. O'zbek xalqi ming yillar davomida yaratgan milliy xazinamizning nodir merosi bo'lgan og'zaki badiiy ijodi hamisha inson kamoloti, yurt farovonligi, jamiyat yetukligi borasida ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Yillar to'zonidan omon-eson o'tib, avlod-ajdodlardan meros qolgan folklor janrlari ijtimoiy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy sohalarida maktab, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda yo'lboshlovchi vazifasini o'taydi. Xalqning turmush tajribalari, kundalik kuzatishlari natijasida yuzaga kelib, o'z isbotini topgan maqollar, naqlarni hayot maktabi darsligi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mustaqil O'zbekistonda milliy qadriyatlar tiklanayotgan hozirgi davrda xalq yaratgan merosini yosh avlod ongi shuurida tasavvur hosil qilish, umuminsoniy qadriyatlarni har tomonlama o'rgatish va tatbiq etish davr talabi. Qolaversa, har bir shaxsning zimmasidagi mas'uliyati hisoblanadi. Ana shu mas'uliyatni his qilgan inson kelajak avlodimizning yangi fikrlaydigan, izlanuvchan, mehr-oqibatli, yurtsevar, elparvar egalarini yetishtirishda, tarbiyalashda o'z hissasini qo'shadi. Buyuk allomalarimizning ibratomuz hayotlari, Vatan, xalq uchun qilgan xizmatlari haqida, aziz-avliyolarning ilmi-urfonini haqida, mamlakat osoyishtaligi, tinchligi, xalq or-nomusi uchun kurashgan sarkardalar haqida, qolaversa, Vatanning har bir go'shasi xususida ota-bobolarimiz yaratgan rivoyatlar o'zining ilmiy, badiiy ahamiyati bilan qimmatlidir. Ana shu davrdan boshlab nima yaxshi-yu nima yomon ekanligini anglay boshlaydilar. Bolalar ulg'aygan sari o'zlaridan kichiklarga ertak aytib berishga, ularni aqlli, vazmin bo'lishga, o'jar, injiq qiliqlarini tashlashga undaydilar. Ular ham o'zlarini kichik tarbiyachilar sifatida tutadilar.

Xalq og'zaki badiiy ijodi katta-yu kichik, yosh-u qari uchun birdek donishmandlik majmuasi hisoblanadi. Asrlar o'tsa-da, buyuk alloma-larimiz asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari badiiy ifodalansa-da, xalq tafakkurining mahsuli bo'lgan folklor asarlari ma'naviy jihatdan olamshumul ahamiyat kasb etishda davom etaveradi.

ADABIYOTLAR

1. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. Akademik litseylar uchun darslik. "Sharq" Toshkent -2010.
2. Irisova S. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda ertaklarning ahamiyati. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali. 2016. No 3.
3. Uch og'ayni botirlar. O'zbek xalq ertaklari. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.

O'quvchilar nutqiy malakasini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi va ertaklardan unumli foydalanish

Allayarova.S.U. Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Rezyume: Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilar nutqini rivojlantirishda ertaklarning o'rni va ahamiyati muhokama qilingan.

Tayanch so'zlar: nutq, pedagogika, xalq og'zaki ijodi, rivojlantirish, ertak, musiqa, san'at.

Эффективное использование народного устного творчества и сказок в формировании разговорных навыков учеников

Аллаярова С.У. Преподаватель Чирчикского государственного педагогического университета Ташкентской области

Резюме. В статье рассказывается об особенностях фольклора. Обсуждалась также роль и значение сказок в развитии речи учеников.

Ключевые слова: речь, педагогика, фольклор, развитие, сказки, музыка, искусство.

Effective use of folk oral creativity and fairy tales in the formation of pupils' conversational skills

Allayarova S.U. Teacher of Chirchik State Pedagogical University of Tashkent region

Summary. This article describes the peculiarities of folklore. The role and importance of fairy tales in the development of pupils speech was also discussed.

Key words: speech, pedagogy, folklore, development, fairy tales, music, art.
